1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. So‘z birikmasi bilan gapning qanday farqli tomonlari bor?

A. So‘z birikmasi ham gap ham tugallangan fikrni ifodalaydi
B. So‘z birikmasi ham gap ham atash vaifasini bajaradi
C. Gap tugallangan fikrni bildiradi, so‘z birikmasi esa faqat atash vazifasini bajaradi.
D. To‘g‘ri javob berilmagan

2. Tasviriy ifodalar to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

A. Makkajo‘xori – dala malikasi, arpa – oltin boshoq
B. Qushlar – qanotli do‘stlar, fazogirlar – samo lochinlari
C. Shoir – mo‘yqalam sohibi, shaxmat – aql gimnastikasi
D. Bokschi – charm qo‘lqop ustasi, dehqon – yaylov bahodirlari

3. To‘rtlik, ya’ni to‘rt misra (qator)dan iborat bo‘ladigan, ta’limiy-tarbiyaviy mavzuda yoziladigan she’riy asar qaysi?

A. Murabba
B. Ruboiy
C. Tuyuq
D. Qit’a

4. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turi to‘g‘ri berilgan javobni toping.

A. Sodda, qo‘shma
B. Darak, so‘roq, his-hayajon
C. Darak, so‘roq, buyruq-istak
D. Soda, qo‘shma, murakkab

5. Olmosh bilan ifodalangan ega ishtirok etgan gapni toping.

A. O‘qish boshlandi.
B. Uning yuziga oyoq qo‘yish axloqimizga zid.
C. Ular to‘garak mashg‘ulotlariga muntazam qatnashar edilar.
D. Uqqan o‘zar, uqmagan to‘zar

6. Ravishdosh bilan ifodalangan fe’l-kesim qaysi gap tarkibida mavjud?

A. Botir xatni kecha yuborgan.
B. Motor gurillab, mashina oldinga intildi.
C. Aholining yashash tarsi yaxshi bo‘ladi.
D. Mehnatsevarlik kishining eng yaxshi fazilatlaridan biri.

7. Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida qancha dori-darmonlar ro‘yhati keltirilgan?
A. 790 dan ziyod
B. 1000 dan ziyod
C. 790 ga yaqin
D. 1000 ga yaqin

8. Ajratilgan bo‘laklar qatnashgan gaplarda qanday tinish belgisi qo‘llanadi?
A. Tire, nuqtali vergul
B. Ikki nuqta
C. Vergul
D. Vergul, tire

9. Fe’lning vazifa shakllariga qo‘shiluvchi bo‘lishsizlik qo‘shimchasi qay holatda qo‘shiladi?
A. Ravishdoshga –ma, -may, sifatdoshga –ma, -mas shaklda qo‘shiladi.
B. Sifartdoshga –ma,-may, ravishdoshga –ma, mas shaklda qo‘shiladi.
C. Sifatdoshga ham, ravishdoshga ham –ma, -may shaklda qo‘shiladi.
D. Sifatdoshga ham, ravishdoshga ham –ma, -mas shaklda qo‘shiladi.

10. Maqollarning ikkinchi qismi to‘g‘ri berilgan?
1. Mahallam -…
2. Qo‘shning tinch - …..
3. Elga qo‘shilsang - …..
4. Eldan ayrilsang - ……
5. Orasta mahalla - …..
6. Avval hashar - …..
7. El ichida dasturxon bilan emas, ….

a) qul bo‘lasan
b) mahalladoshlar sha’ni
d) so‘ngra oshar
e) mehnat bilan obro‘ topiladi
f) gul bo‘lasan
g) vatan ichra vatanim
h) sen tinch.

A. 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-f, 6-g, 7-h
B. 1-e, 2-d, 3-b, 4-a, 5-f, 6-h, 7-g
C. 1-g, 2-h, 3-f, 4-a, 5-b, 6-d,7-e
D. 1-h, 2-g, 3-b, 4-b, 5-a, 6-e, 7-d

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Quyida berilgan qo‘shimchalarning qaysi biri yasama narsa-buyum otlarini yasahsda qo‘llanadi?

1. –lik. 2. – don. 3. –gich. 4. –zor. 5. –goh. 6. –oq. 7. –kash. 8.- soz. 9. –do‘z. 10. –kich. 11. –chi. 12. –m. 13. –gar. 14. –ma. 15. –chilik.

A. 1,2,6,8,13,15
B. 4,5,6,10,12,13
C. 2,3,6,10,12,14
D. 1,2,7,9,11,13

12. Ijtimoiy hayotimizdagi eng dolzarb masalalarni barchaga tushunarli, ta’sirchan shaklda adabiy til me’yorlariga rioya qilgan, tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib borishda qo‘llanadigan uslubni belgilang.

A. Ilmiy uslub
B. Badiiy uslub
C. Publistik uslub
D. Rasmiy uslub

13. Berilgan ta’riflardan qaysi biri ibora haqida?

1. Ma’nosi bir so‘zga teng keladi
2. ikki va undan ortiq so‘zlar yig‘indisi.
3. O‘z ma’nosida ishlatiladi.
4. Ko‘chma ma’noda ishlatiladi.
5. Gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi.
6. Iboradagi so‘zlar har biri alohida so‘roqqa javob bo‘ladi.
7. Iboralar nutqni ta’sirchan, jozibali qiladi.
8. iboralar nutqni ta’sirchan, jozibali qilmaydi.

A. 1,2,3,4,5,6,7,8,9
B. 1,2,4,6,8
C. 1,3,6,7,8
D. 1,2,4,5,7

14. Muayyan tashkilotga yoki biror shaxs nomiga iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjatdir. Eng keng tarqalgan va ko‘p ishlatiladigan ish qog‘ozi bo‘lib, barcha idoralarga yozilishi mumkin?

Bu ta’rif qaysi ish qog‘ozi haqida?

A. Bildirgi
B. Tushuntirish xati
C. Tilxat
D. Ariza

15. So‘z-gaplar haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri?

A. Bir so‘zdan iborat bo‘lib, boshqa so‘zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan gaplar so‘z-gaplar deyiladi.

B. Bir so‘zdan iborat bo‘lib, boshqa so‘zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega bo‘lgan gaplar so‘z-gaplar.

C. Bir va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lib, boshqa so‘zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan gaplar so‘z-gaplar deyiladi.

D. bir va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lib, boshqa so‘zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega bo‘lgan gaplar so‘z-gaplar deyiladi.

16. Mehmonlar Go‘zalni // o‘n besh yoshlardagi // quvnoq // hammaga samimiy boqadigan sho‘x qizni // yoqtirib qolishdi.

Tinish belgilarini to‘g‘ri joylashtiring.

A. Ikki nuqta, vergul, vergul, tire, nuqta
B. Tire, vergul, vergul, tire, nuqta
C. Tire, ikki nuqta, vergul, vergul,nuqta
D. Ikki nuqta, vergul, vergul, tire, nuqta

17. Bizning maqsadimiz a’lo baholarga o‘qish.

Berilgan gap qaysi qatorda gap bo‘laklariga to‘g‘ri ajratilgan?

A. Ega, to‘ldiruvchi, kesim
B. Aniqlovchi, ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, kesim
C. Ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, kesim
D. Aniqlovchi, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, kesim

18. Qaysi javobda shaxsi umumlashgan gap berilgan?
A. Xalqimiz va vatanimizga sadoqatli farzand bo‘lamiz.
B. Nima eksang, shuni o‘rasan.
C. Muammoni shu yo‘l bilan hal qilsa bo‘ladi.
D. Bu topshiriqni puxta bajarish kerak.

19. Kitobni Misr ehromlari, Bobil osma bog‘lari, Zevsning haykali qatorida dunyoning mo‘jizalari safiga qo‘shgan adib kim?
A. Asqad Muxtor
B. Ozod Sharafiddinov
C. Jumaniyoz Jabborov
D. Xudoyberdi To‘xtaboyev

20. Bir odamni so‘kib qochgandim,
Qo‘rqib bog‘dan bog‘ga oshgandim.
O‘tolmasdim keyin bog‘ tomon,
Nomim bo‘lgan edi ko‘p yomon.

Ushbu she’riy parcha muallifi kim?

A. Zafar Diyor
B. Po‘lat Mo‘min
C. Quddus Muhammadiy
D. Sirojiddin Sayid

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi”, “O‘zbekiston xalq yozuvchisi”, “Polsha Xalq Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi” faxriy unvonlari bilan taqdirlangan taniqli adib kim?
A. Dushan Fayziy
B. O‘tkir Hoshimov
C. Said Ahmad
D. Rahmat Fayziy

22. Sharq tarixi, geografiyasi bo‘yicha g‘oyat muhim ma’lumotlarga ega nodir ilmiy-adabiy yodgorliklar bo‘lib, dunyoning ko‘p tillarga tarjima qilingan asar va uning muallifini toping.
A. “Boburnoma” asari Zahiriddin Muahmmad Bobur

B. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”asari. . Abu Rayhon Beruniy
C. “Tib qonunlari” Abu Ali ibn Sino
D. “Hindiston” asari. Abu Rayhon Beruniy

23. Qaysi mashhur yozuvchi ijod bilan birgalikda zootexniklik faoliyatini olib boradi?
A. Oybek
B. Chingiz Aytmatov
C. Tog‘ay Murod
D. Normurod Norqulov

24. “So‘nggi bek”, “Muhojir”, “Masjid gumbazlari ostida” filmlarida rollarni mahorat bilan ijro etgan “Alisher Navoiy”, “Vatanga sovg‘a” kabi filmlarni suratga olgan buyuk aktyor va kinorejissyor kim?
A. Abror Hidoyatov
B. Shukr Burxonov
C. Komil Yormatov
D. Yoqub Ahmedov

25. Undalma to‘g‘risidagi qaysi hukm to‘g‘ri?
A. So‘zlovchining nutqi, fikri qaratilgan shaxs yoki narsani bildirgan so‘z undalma deyiladi.
B. So‘zlovchining o‘zi bayon qilgan fikrga qo‘shimchasi mulohazasini bildirgan gap undalma deyiladi.
C. So‘zlovchining o‘zi bayo qilgan fikriga munosabatini bildirgan bo‘lak undalma deyiladi.
D. So‘zlovchining o‘zi bayon qilgan fikrga qarshi bildirilgan fikr undalma deyiladi.
26. Uzoq yashash uchun, avvalo, sog‘lom bo‘lish kerak.

Berilgan gapda modal so‘zlarning qaysi ma’no turi qo‘llangan?

A. Bayon qilingan fikrni xulosalashni bildirgan modal so‘z
B. Bayon qilingan fikrning tartibi va izchilligini bildirgan modal so‘z
C. Bayon qilingan fikrning gumonligini bildirgan modal so‘z
D. Ishonch va tasdiqni bildirgan modal so‘z

27. Chiziqcha bilan yoziladigan yuklamalarni aniqlang.
1. –chi 2.–u (-yu) 3.–gina 4. –mi 5.–a(-ya) 6. –ku 7. –da 8. –kina
A. 1,2,3,5,6
B. 1,2,5,6,7
C. 1,3,5,7,8
D. 1,4,5,6,8

28. 1. Bizning Vatanimiz.
2. Davlatni barpo qilmoq.
3. Mustaqil davlat
4. G‘ayrat bilan ishlamoq
5. Ovozi kuchli
6. Doska yoniga chiqmoq
7. Sharafli ish

a) moslashuv aloqasi
b) boshqaruv aloqasi
d) bitishuv aloqasi

Berilgan javoblarning qaysi brida moslik to‘g‘ri?
A. 1-a ; 2,4,6-b; 3,5,7-d;
B. 1,3-a; 2,5,7-b; 4,6-d
C. 1-a ; 2,4,6,7-b; 3,5-d
D. 1,2,-a ; 3,4,5-5; 6,7-d

29. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi asosan qasi so‘z turkumlarini bir-birga bog‘lashga xizmat qiladi?

A. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi, asosan, ot yoki sifat bilan otni o‘zaro bog‘laydi.
B. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi, asosan, ot yoki olmosh bilan otni o‘zaro bog‘laydi.
C. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi, asosan, ot yoki ravish bilan otni o‘zaro bog‘laydi.
D. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi, asosan, ot yoki olmosh bilan sifatni o‘zaro bog‘laydi.

30. Tushum kelishigi qanday holatda belgisiz qo‘llanadi?

A. Tushum kelishigi aniq voqealarga oid harakatni ifodalaganda belgisiz qo‘llanadi.
B. Tushum kelishigi payt ma’nosini ifodalaganda belgisiz qo‘llanadi.
C. Tushum kelishigi umumiy mavhum narsa-hodisalarga doir harakatni ifodalaganda belgisiz qo‘llanadi.
D. Tushum kelishigidagi so‘zlar har doim belgili qo‘llanadi.